



TRANSLATIONS OF DRAMAS IN THE SYSTEM OF CHINESE AND WESTERN LITERARY RELATIONS

Shahnoza Komilova

**Senior Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Republic of Uzbekistan**

Abstract: The article highlights the influence of European literature on Chinese literature during the period of new dramaturgical reforms. It discusses the influence of Western modernist literature, drawing on modern dramaturgy, overcoming the barriers of the realist model of drama and the idea of realizing dramaturgical innovation. Parallel to the notion of dramaturgy, attention is paid to the reform of creativity and stage art in world dramaturgy, and its results are discussed.

Keywords. new drama, huà jù (huàjù) genre, Western modernist literature, realistic drama, stage performance, drama reforms, Chinese youth art theater, symbolism, expressionism and absurd drama.

XITOY VA G'ARB ADABIY ALOQALAR TIZIMIDA DRAMALAR TARJIMALARI

Shahnoza Komilova

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchi
Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya. Mazkur makola Xitoy adabiyotida yangi drama islohotlari davrida Yevropa adabiyotining ta'siri masalasi yoritib berilgan. G'arb modernistik adabiyotining ta'siri, zamonaviy dramaturgiyasiga tayanish, realistik drama modeli to'siqlarini yorib o'tish va dramaturgiya innovatsiyasini amalga oshirish g'oyasi ilgari surilgan munozaralar xususida ma'lumotlar berilgan. Drama konsepsiya bilan parallel ravishda dramaturgiya olamida ijodni va sahna faoliyatini isloh qilishga e'tibor qaratila boshlanganligi, uning natijalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. yangi drama, huà jù (话剧) janri, G'arb modernistik adabiyoti, realistik drama, sahna faoliyatini, drama islohotlari, Xitoy yoshlar badiiy teatri, simvolizm, ekspressionizm va absurd drama.

Yangi davr drama islohotlariga voqelikning chuqur ta'siridan tashqari, ikkita dramatik an'ana ham ta'sir ko'rsatdi: birinchisi, yangi adabiyot inqilobidan keyingi voqealar ayniqsa, huà jù (话剧) janrining ijobiy va salbiy tajriba va saboqlar; ikkinchisi, xorijiy modernistik drama nazariyasi va uning dramalarda aks etishi¹. Bulardan 1982-yillar atrofida drama munozarasi bo'yicha bahslarda o'z aksini topgan tashqi ta'sir masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoy an'anaviy dramaturgiyasiga G'arb modernistik adabiyotining ta'siri natijasida ikki qarama karshi an'anaving kurashi boshlandi., 4-may harakati davrida Xorijiy zamonaviy dramaturlardan Moris Meterlink, Gergart Gaupertman, Jon Guqin, Avgust Strindberg, Ernst Toller, Yudjin O'Nil asarlari kirib kelishidan tashqari XX asr 50-60 yillarida Fransiyada va Yevropani qamrab olgan Semyuel Bekket, Ejen Ionesku, Grigoriy Adamov, Jan-Genet, Garold Pinter va boshqalarning absurd dramalari ham Xitoyga kirib kelgan.

1979-yilda Xitoy Yoshlar Badiiy Teatri Brextning “Galiley hayoti (

伽利略传)” dramasini namoyish etdi. Bu drama Brext va Stanislavskiyning ikkita asosiy dramatik tizimini uyg'unlashtirishda tajriba vazifasini o'tadi. 1981 yilda “Shanxay yoshlar drama” truppasi Shanxayda Fransuz

¹ 中国现代文学史。1915-2016. 北京大学出版社。2018

ekzistensialist faylasufi Jan-Pol Sartrning mashhur “Iflos qo‘llar (肮脏的手) spektaklini namoyish etdi. 1983-yil may oyida Pekin xalq badiiy teatrda Artur Millerning o‘zi rejissorlik qilgan “Sotuvchining o‘limi (推销员之死)” spektakli namoyish etildi. Drama nazariyasi tomondan dastlab Brextning hikoyaviy dramasi, so‘ngra absurd dramatik nazariyasi, so‘ngra Grotovskiyning sodda dramasi, Peter Brukning shafqatsiz dramasi va boshqalar Xitoyga kirib keldi hamda drama dunyosi va sahna faoliyatiga keng va chuqur ta’sir ko‘rsatdi.² G‘arb modernistik dramasining realizmga qarshi isyoni, Moris Meterlinkning statik dramasi va absurd drama nazariyasi Xitoy dramaturgiyasi an’analarini qayta anglash va an’anaviy Xitoy operasi merosini qayta baholashga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sirlar oxir-oqibat drama konsepsiyasida munozaralarga olib keldi.

Shu tariqa XX asrning 60-yillarda adib Huang Zuolin tomonidan taklif qilingan dramaning erkin ko‘rinishi qayta taklif qilindi.³ Dramaturg Gao Singjian bu jarayonda “Ibsenning ijtimoiy axloqiy pesasi o‘ziga xos kontseptual drama sifatida bir asrdan buyon mavjud bo‘lsada, jahon dramaturgiyasi rivojlanishdan to‘xtamagan, biz buni yengib bo‘lmaydigan drama modeli deb hisoblashimiz shart emas” deb izoh keltiradi.

Ushbu munozaralarda dunyo ijodiy va sahna faoliyatidagi dramatik izlanishlar uchun jamoatchilik fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Munozara davomida G‘arb zamonaviy dramaturgiyasiga tayanish, realistik drama modeli to‘siqlarini yorib o‘tish va dramaturgiya innovatsiyasini amalga oshirish g‘oyasi keng e’tibor qozondi⁴.

² Yuan Kejia va boshqalarning tanlangan asarlari: “Xorijiy modernistlarning tanlangan asarlari” Shanxay adabiyot va san’at nashriyoti, 1984-yil nashri; Bekket va boshqalar: “Absurdning tanlangan dramalari”, Shi Chengrong va boshqalar tomonidan tarjima qilingan, 1983-yilda Chet el adabiyoti nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Nazariy to‘garaklar qatoriga Grotovskiyning “Sodda drama sari”, Shinenning “Zamonaviy drama nazariyasi va amaliyoti” va “Xorijiy dramatik tadqiqot materiallari seriyasi” 1980-yillarda ketma-ket nashr etilgan.

³ Huang Zuolin: “Dramaga qarashlarni muhokama qilish”, “Xalq kunlik gazetasi (Renmin ribao)”, Chen Gongmin: “Drama tushunchalaridagi muammolar”, “Ssenariy”, 1981-yil.

⁴ Gao Xingjian: “Drama tadqiqoti”. “Drama dunyosi” 1982-yil, 1-son.

1985-yilda ushbu munozaralar avjiga chiqdi va 90-yillarda ham vaqt-i-vaqt bilan drama konsepsiysi bo'yicha muhokama maqolalari nashr qilinardi⁵. Munozara davomida dramaturglar Gao Singjian, Chen Gongmin va Tan Xusheng dramanining tabiatini haqida harakat nazariyasi, vaziyat nazariyasi kabi nazariyalarni taklif qildilar, Lin Kehuan va boshqalar realizm va modernizm o'rtasidagi munosabatlarga ochiq realistik pozitsiyani qo'llab quvvatladilar. Drama konsepsiylarini o'rganish bilan parallel ravishda dramaturgiya olamida ijod va sahna faoliyatini o'rganish uni isloh qilishga xam e'tibor qaratila boshlandi. Ma Zhongjun, Jia Hongyuan va Qu Xinhua tomonidan yozilgan "Uydan tashqarida issiqlik bor (屋外有热流)" falsafiy dramasi misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu drama mazmuni an'anaviy bo'lib, bir tomondan shaklan simvolizm, ekspressionizm va absurd dramatik uslublariga dadil murojaat qilingan (real sahnalar va xotiralar, orzular bir biri bilan chambarchas bog'langan, erkin sahnadagi vaqt va makon, sahnada arvochlarning paydo bo'ishi, suhbat qurishi va hokazo), bir vaqtning o'zida tetiklantiruvchi; ikkinchi tomonidan, qahramonlarning ma'naviy olamini ifodalashga, mavzuga muayyan falsafiy mazmun berishga intilgan.

Mazkur dramanining mukofotlanishi, kashfiyot dramasi paydo bo'lishiga turki bo'ldi⁶. 1984 va 1985-yillarga kelib, dramatik izlanishlar to'lqini o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda kashfiyot dramasi jarayoniga asosan G'arb zamonaviy dramaturgiysi tushunchalari va uslublari ta'sir ko'rsatdi. Ulardan eng ta'sirli asarlar quyidagilar: Zong Fuxianning "Qon doim qaynoq (血，总是热的)", Yan Saypingning "Chin imperatori Shimin (秦王李世民)", Ma Zhongjunning "Yo'l (路)", Gao Sing Jian "Mutlaq ishora (绝对信号)", "Bekat (车站)", Liu Shugangning "O'n besh ajralish ishini tekshirish va tahlil qilish (十五桩离婚案的

⁵ Muhokamada ishtirok etayotgan asosiya a'zolar: Xuan Zuolin, Tan Xushen, Chen Gongmin, Ding Yangzhong, Tong Daoming, Xu Xiaozhong, Xu Veyming, Van Gui, Gao Xingjian, Lin Ke Huan, Du Qingyuan, Ma Ye va boshqalar. Xitoy drama nashriyoti, 1988-yil nashriga kiritilgan.

⁶ Umumxitoy kasaba uyushmalari federatsiyasi va Madaniyat vazirligi hamkorlikda "Izlanuvchi va kashfiyotchilar" mukofotini e'lon qildi. 1982-yil 17-mayda Madaniyat vazirligi va Xitoy dramaturglari birlashdi, 1980-1981 yillarda Xitoy dramasi, Xitoy operasi va Geng operasi uchun Milliy ajoyib ssenariy mukofotini topshirish marosimida kichik drama sifatida mukofotga sazovor bo'ldi.

调查剖析)”, Liu Shugangning “Murdaning tiriklarga tashrifi (一个死者对生者的访问)”, Ma Zhunjun va Qin Peyxun xammualiflikdagi “Qizil xona·Oq xona·Qora xona (红房间·白房间·黑房间)” va boshqalar.

1985-yil oxiridan 1986-yilning boshigacha butun mamlakat bo‘ylab tarqalib ketgan dramaga bo‘lgan izlanish ishtiyoqi so‘na boshladi, shu tariqa tobora sokinlashib borayotgan dramatik tadqiqotlar olamida faqat matonatlilarning izlari qoldi. Bu bosqichda eng nufuzli asarlarning aksariyati G‘arb modernistik drama estetikasini o‘ziga singdiruvchi va hazm qilgan realizm ko‘rinishida paydo bo‘ldi. Luo Jianchuanning “Qora ot (黑骏马)”, Jin Yunning “Gou’erye nirvanasi (狗儿爷涅槃)”, Sha Ye Sinning “Er-yigitni qidirib (寻找男子汉)”, Li Longyunning “Oy nuriga to‘la cho‘l (洒满月光的荒原)”, Fey Chunfangning “Xitoy orzusi (中国梦)”, Yu Yunning “Yigirma yoshli bahor (二十岁的春天)” va boshqa *xuajuy* 话剧 janri bo‘yicha izlanishlarning chuqurlashganini ko‘rsatadi.⁷ Drama izlanishlari orqali ushbu *xuajuy* (话剧) janrining badiiy tushunchalari, ijodiy g‘oyalar va estetik izlanishlar tomonidan yangi xususiyatlarga ega bo‘ldi. Badiiy tushuncha nuqtai nazari orqali oxir oqibat dramaturgiya siyosatga bo‘ysunishdan qutuldi. Yozuvchilar endi hayotni faqat siyosiy nuqtai nazardan emas, balki butun jamiyat nuqtai nazaridan, madaniyatning barcha jabhalaridan kelib chiqib kuzata boshladilar, hayot, uning boyligi va murakkabligi haqida yoza boshladilar. Ijodda yozuvchilar hayotning endi passiv aks ettiruvchisi emas, balki ijodkorning (rejissorlar, ssenariynavislari) subyektiv tashabbusi ilgari surila boshlandi, bu birinchi navbatda bir qator dramatik asarlarning realistik zamon va makondagi burilishlarida namoyon bo‘ldi, ikkinchidan XX asr boshlarida yuz bergen «4-may harakati» davridan boshlab shakllanib kelgan ayrim odatlarni bartaraf etishda namoyon bo‘ldi. Turli vositalardan (musiqa, qo‘sish, raqs va pantomima harakatlari kabi qardosh san’at elementlari, gimnastika, akrobatika elementlari, zamonaviy texnologiya olib kelgan ovoz, yorug‘lik va elektr energiyasi kabi texnik elementlar) dadil foydalanib, faqat

⁷ 中国现代文学史。1915-2016. 北京大学出版社。2018

o‘zi uchun ishlaydigan ulkan keng qamrovli san’at tizimi yaratila boshlandi. Ko‘pgina dramalarda ijodkorlar ko‘pincha boshlovchi, hikoya qiluvchi va hatto xor yordamida hikoyaga o‘zlarining sharhlarini beruvchi sifatida kiritdilar, bu ham sub’ektiv tashabbusning bir ko‘rinishi bo‘lib qoldi.

80-yillarda yuqorida tilga olingan kashfiyot dramaturgiysi kuchayib borayotgan bir paytda, qiyinchiliklarga qaramay realistik drama hamon yaxshi natija ko‘rsatdi. Bunga Bay Fengsining “Yorqin oy odamlarga porlaydi (明月初照人)”, Liang Bingkunning “Kim kuchli (谁是强者)”, Li Jiening “Gaolian qizardi (高粱红了)”, Mo Yanning “Song ustozning kundaligi (宋指导员的日记)”, Bai feng xining “Do‘st kulfatda bilinar (风雨故人来)”, Vey Minning “To‘y va a’za (红白喜事)” kabi dramalarni misol keltirishimiz mumkin. Bu kabi dramalar avvalgi bosqichga nisbatan rivojlangan, hayot haqiqatiga chuqurroq kirib borgan, personajlar yanada boyib, murakkablashdi⁸.

Bu kabi dramaturgiyaning rivojlanish tendesiyasida 90-yillarga kelib, kashfiyot dramasi deyarli yaratilmadi. Bu yillarda Guo Chihong, Guo Shixing va Yao Yuanning pesalari e’tibor berishga arzirli dramalar hisoblanadi.

1990-yillarda Xitoy dramasi sahnasida postmodernistik drama juda katta obro-e’tibor qozondi. Shu bilan bir qatorda dramaturgiya doiralarida postmodern dramalarning paydo bo‘lishining ham sabablari ko‘p edi. Guo Chihong, Guo Shixing va Yao Yuanning “Biz faqat so‘nggi ikki o‘n yilliklar orasida postmodernizmga oid o‘zgarishlarning guvohi bo‘ldik. Chunki, bu tushunchani G‘arbda ancha chuqurroq tushunib olishgan. Bizning muammoimiz shundaki, ko‘plab olimlar G‘arbdan olib kelingan ko‘plab postmodern adabiy nazariyalarni o‘qishgan, ammo ular modern asarlarni o‘qimagan. Shu bois, nazariya va asarlar haqidagi so‘z yuritilganida chalkashlik mavjud” deb izoh berib o‘tadi⁹. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, XX asr boshlarida rivojlangan drama janri uning rivojiga ta’sir

⁸ 中国现代文学史。1915-2016. 北京大学出版社。2018

⁹ 中国现代文学史 1917—2010(精编版)/朱栋霖主编.北京:北京大学, 2011.

ko‘rsatgan omillar, Yevropa va Sharq adabiyoti ta’siri masalalari o‘z bosqichlariga ega bo‘ldi. Dramaning rivoji borasida bir qator munozalar olib borildi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. 中国现代文学史。1915-2016. 北京大学出版社。2018
2. 中国现代戏剧史/1899-1949/北京/ 2008。
3. 中国现代文学经典选读/北京/ 2006 年/
4. Камилова Ш. Т. Тематика китайской драмы 40-х гг. Века //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 2. – С. 29-32.
5. Mukhiddinova, D., Saidova, N., Komilova, Sh., Shermatova, G., & Egamberdieva, M. (2022). Features of The Development of Drama in the Eastern countries. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(3), 31-41.